



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ҲУЗУРИДАГИ ТАЛАБА ВА ЎҚУВЧИЛАРНИ МАЪНАВИЙ
ЮКСАЛИШИГА КЎМАКЛАШИШ МАРКАЗИ**

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ**

НАВОИЙ ВИЛОЯТИ ЛИДЕР ЁШЛАР ВА АЁЛЛАР МАРКАЗИ

**ЎЗБЕКИСТОН НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ
ТАШКИЛОТЛАРИ МИЛЛИЙ АССОЦИАЦИЯСИ**

**ЎЗБЕКИСТОН НОДАВЛАТ НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИНИ
ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЖАМОАТ ФОНДИ**

**ЎЗБЕКИСТОН ЁШЛАР ИТТИФОҚИ
ТОШКЕНТ ШАҲАР КЕНГАШИ**

“ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР: ОЛИМЛАР ВА ЁШЛАР НИГОҲИДА”

**мавзусидаги Республика илмий-амалий
конференция тўплами**

2022 йил 29 сентябрь



tanqidga uchrashdan qo'rqish hissi mavjud o'quvchilarda kreativlik odatga aylanmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: „O'zbekiston“, 2017 yil, 488 bet.
2. „Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari“ moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015, 40 bet
3. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2004-yil. 102 b. 46-47 betlar.
4. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua – Toshkent. 2016.
5. Jo'rayev P.X., Raximov B.X., Xomatov SH.F. Yangi pedagogik texnologiyalar. Muammoli ta'limning asoslangan o'quv-metodik qo'llanma. -T.: Fan, 2005, 66 b.

KOMPETENTLI KADR – KELAJAK POYDEVORI

Mavlyanov Aminjon

f.-m.f.n., dotsent, Astraxan davlat texnika universiteti Toshkent viloyati filiali

Ubaydullaeva Vazira Patchaxanovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi assistenti

Dunyoda bo'lajak kompetentli kadrlarni tayyorlash bo'yicha qator ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: elektron-dasturiy vositalar asosida o'qituvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish; mantiqiy-ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kompetensiyalar tizimini shakllantirish, virtual laboratoriyalar bilan ishlash, pedagogik innovatsion ta'lim klasterining rolini oshirish hamda o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishning metodik ta'minotini takomillashtirish.

Respublikamizning rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi uchun zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya asosida mutaxassislar tayyorlashning takomillashgan tizimiga bosqichma-bosqich o'tilmoqda. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, zamonaviy ilmiy tafakkur yutuqlariga, ilg'or tajribalarga tayangan holda, barcha ta'lim muassasalarida jumladan, tibbiyot yo'nalishidagi OTMlarida ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish ta'minlanmoqda.

Hozirgi dolzarb muammolardan biri yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy va pedagogik mahoratini takomillashtirish, zamon talabi darajasida tadbirkorlik qobiliyatini shakllantirish, o'qituvchilarning kompetentligini rivojlantirish, ularni ilg'or ta'lim texnologiyalari bilan qurollantirish bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimining barcha yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan



o'zgarishlar, o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, unga ta'lim berish jarayonini sifat jihatdan takomillashtirishni taqozo etmoqda [2].

Bugungi kunda ta'lim tizimini isloh qilish, unga xorij davlatlarining ilg'or texnologiyalarini tatbiq etish, ular asosida zamonaviy o'qituvchining o'quv jarayonini tashkil etishi dolzarb hisoblanadi. Shu orqali u talabalarning mustaqilligi, ijodkorligi, tashabbuskorligi va tadbirkorligini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi. Tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Chunki, faqat mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina o'z muammolariga yechim topa oladi, jamiyatda o'z mavqeiga ega bo'ladi.

Shunday ekan, o'qituvchi jumladan, fizika o'qituvchilari o'quv jarayonida mashg'ulotni talabalarning ta'lim-tarbiya olishi, intellektual rivojlanishi uchun omil bo'lishi, ularning faolligi, mustaqil fikr yuritishi, mavzuni o'zlashtirishi, ijodiy izlanishga yo'naltirishi lozim. Mashg'ulotning ilmiy asoslanganligi, yoritilayotgan mavzuning aniqligi, zamonaviy ilm-fan rivojining o'rni, shuningdek, fanlar o'rtasidagi aloqani uzviyligi, muammoli vaziyatlarning mavjudligi talabalarning puxta bilim olishlarini ta'minlashi maqsadga muvofiq.

Har tomonlama yetuk tibbiyot xodimlarini tayyorlash o'qituvchining saviyasiga, kasbiy tayyorgarligiga va fidoiyligiga, uning yosh avlodni o'qitish-tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Shunday ekan, o'qituvchi har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkurga ega, o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik-psixologik va metodiy bilim hamda malakalarni egallagan bo'lishi hamda turli tibbiy vazifalarni tezda yechishi, vaziyatlarni to'g'ri baholay olishi lozim. Har bir o'qituvchi mehnatining samaradorligi bugungi kunda talabalarni mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlaganligi bilan baholanishi kerak.

Bu borada pedagogik va axborot texnologiyalari, interfaol usullardan o'quv jarayonida maqsadli foydalanish, har bir fan jumladan, fizika fani bo'yicha bu sohada aniq rejalarni tuzish va amalga oshirish, darslik, o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish, ularni talabalarga yetkazish vazifalari bugungi kunda muhimdir.

Tibbiyot yo'nalishidagi OTMlarida faoliyat ko'rsatayotgan fizika o'qituvchilari innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalar, o'quv jarayonini faollashtirish usullari va fan bo'yicha sifatli o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantiruvchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. O'qituvchi mazkur texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, uni ushbu jarayonga joriy eta olishi kerak.

Fizika fani o'quv jarayoniga ushbu texnologiyalarni joriy etish o'qituvchidan ijodiy izlanishni ham talab etadi. Unda rivojlangan turli darajadagi kompetensiyalar mavjud bo'lsa, u davlat ta'lim standartlari asosida talabaga aniq maqsadni belgilab bera olishi mumkin. Belgilangan maqsad va vazifalarni e'tiborga olgan holda mashg'ulot modelini yaratadi. Bu modelni ishlab chiqish asosan tizimli, texnologik va kompetensiyaviy yondoshuvlar tizimini yaratish va unga erishish ketma-ketligiga asoslangan holda olib boriladi [3].

OTMlarda fizikani zamonaviy talablar darajasida o'rganish, birinchi navbatda,



o'qituvchining umumiy tayyorgarligi darajasiga bog'liq bo'lib, uning muhim tarkibiy qismi kasbiy kompetensiya, umumlashtirilgan shaxsiy sifat sifatida yuqori darajadagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Fizika o'qituvchisining nazariy, metodik, psixologik, pedagogik va fan tayyorgarligi, o'quv-pedagogik muammolarni hal etishning asosiy vositasi va zamonaviy o'qituvchi bo'lish mezonini hisoblanadi. Lekin, tibbiyot yo'nalishidagi OTMlari fizika fanini o'qitish amaliyotini o'rganish fizika o'qituvchilarining kasbiy malakasi, tafakkuri va kompetensiyalari holatini yuqori ball bilan baholab bo'lmaydi.

Tahlillar ko'rsatdiki, ko'plab fizika o'qituvchilari o'zlarining kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarining rivojlanish darajasidan qoniqmaydi. Ular - o'quv jarayonini tashkil etish, talabalarga individual yondoshuvni amalga oshirish, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, o'qitishning eng oqilona usullarini aniqlash, muayyan pedagogik vaziyatlar, o'quv eksperimentini o'rnatish, dastur va darsliklarni tanlash, fanlararo aloqalarni o'rnatish, samarali mustaqil ishlarni tashkil etish kabilar borasida bir qator muammolarga uchraydi. Bularning barchasi nafaqat ba'zi o'qituvchilarning zamonaviy talablariga muvofiq yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallashga qodir emasligidan (ba'zan istamasligidan) yoki tibbiyot OTMlari faoliyati har doim ham yuqori darajada emasligidan dalolat beradi.

Shunday ekan, bugungi kunda mazkur OTMlari fizika o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitish, turli darajadagi kompetensiyalarini rivojlantirish, bu borada innovatsion (pedagogik va axborot) ta'lim texnologiyalaridan foydalanish dolzarb hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar o'qituvchilar tomonidan o'zlashtirilayotgan kompetensiya va kompetentlik sifatlarini rivojlantirish, keng ko'lamli ilmiy-tadqiqotlarni olib borish, mehnat bozorida o'z o'rinlarini saqlab qolishlariga yordam beradi. Bunda fizika o'qituvchilari ushbu texnologiyalarning mazmun va mohiyati bilan tanishadi, kasbiy faoliyatda ularni samarali, maqsadli qo'llash malakalariga ega bo'ladi, o'quv jarayonini aniq loyihalashtirishga oid tajribalarini yanada boyitadi, pedagogik innovatsiyalarni asoslash, yaratish va amaliyotga joriy etish yo'llaridan xabaror bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quv jarayonida fizika o'qituvchilarining kasbiy faolliklarini ta'minlash, turli darajadagi kompetensiyalarini rivojlantirishg, ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon integrallashuvi jarayonida ta'lim sohasining rivojlanishida kompetensiyaviy yondashuv, har bir sohada, jumladan tibbiyot yo'nalishlari sohasida kompetentli mutaxassislar zarur bo'lib, xorijda bu borada ko'plab tajribalar to'plangan. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va OTMlarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, fan standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, fan jumladan, fizika o'qituvchilarini rivojlantirishga yo'naltirilgan turli darajadagi kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.



Fizika o'qituvchilarining turli darajadagi kompetensiyalarini rivojlantirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondoshuvlar, laboratoriya ishlarining virtual shakllarini joriy etish, fizika o'qitishdagi kompetensiyaviy yondoshuvlar, fizikaning fanlararo bog'liqligini aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bu borada, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida asosiy vazifalar sifatida - OTMdagil ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash; innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-pedagoglar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq choralar ko'rish; o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarning mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish kabilar belgilangan [1].

Respublikamiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, kompetentli kadrlarga bo'lgan talablar ta'lim kompetensiyalarini har bir o'quv, jumladan, fizika fanini o'qitish jarayonida rivojlantirib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, PF-4947-sonli Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018 y., 06/18/5483/1594-son).

2. Turg'unov S.T. Ta'lim tizimi: boshqaruv tamoyillari va yangicha yondoshuvlar // J. Kasb-hunar ta'limi. -T., - 2006. - № 3, - B. 2-4.

3. Muslimov N.A., va b.q.lar. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. - T., - 2015. - 120 b.

ZIDDIYAT VA UYG`UNLIK (GULI MUROD HIKOYALARI ASOSIDA)

Ulkanboyeva Matluba

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Olam – bir-birini taqozo qiluvchi va ayni damda bir-birini istisno qiluvchi tushunchalar uyg'unligidir. Yer-u osmon. Tun-tong. Nur va zulmat. Ezgulik-yovuzlik... "Falsafa asoslari" kitobida ayni shu holat ziddiyat deb atalishi ko'rsatilgan. Yana falsafada ziddiyatning ichki va tashqi, asosiy va asosiy bo'lmagan turlari farqlanadi va taraqqiyot asosi sifatida ko'rsatiladi: "Ko'p hollarda ayniyat va tafovutning zidligi va ularning bir maxrajga kelishi, me'yoriy o'zgarishlar tufayli rivojlanish, taraqqiyot, yangilanish jarayonlari amalga oshadi. Taraqqiyot shu ma'noda ayniyat, tafovut va



пол ҳосил қиладиган қурилманинг тортишга қаршилигини аниқлаш.....418

Сиддикова Ш.А. Значение международных оценочных программ для Узбекистана.....422

Soatova G.N. “Maorif va o’qitg’uvchi” jurnali va jurnaldagi adabiyot materiallari tasnifi.....424

Sobirova M.I. Abdurahmon ibn Xaldunning hayoti va siyosiy va ilmiy faoliyati.....429

Subkhonova N.A. Relations with central asian states multiple repair mechanisms (Review of the articles of the “People’s Word” newspaper).....430

Sulaymonova F.O. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida nutq madaniyatini oshirish.....434

Суюнов Д. Таълим-тарбия жараёнида ўқувчи ёшларда экологик тафаккурни шакллантириб бориш.....438

Suyunov Sh.J. PISA xalqaro baholash dasturi doirasida o’quvchilarning kreativ fikrlashini oshirishga doir qo’llaniladigan tamoyillar.....441

Таралева Т.А, Вафин Д.М., Махмудов Д.Э., Усмоналиева Н.Ш. Анализ композиционного состава тела и некоторых антропометрических показателей у элитных спортсменов, занимающихся греблей.....445

Таралева Т.А., Абляимов Р.Т., Рузикулова А.Н., Абдуллаева Х.О. Вариабельность сердечного ритма в оценке тренируемости спортсменов, занимающихся велоспортом.....447

Тошанов Ф.Х. Шахслардаги новербал мулоқот марказлари.....449

Тошпулатов И.И. Инсон капитали назариясининг шаклланиши ва ривожланиши.....451

Тўлаганова З.К. Бройлер жўжаларининг гўшт маҳсулдорлигини оширишда озуқавий “бавмэнзайм” биологик ҳавфсиз озуқавий қўшимчасидан фойдаланиш технологиясини ўрганиш.....454

Turobov J.Q. Та’лим тизимидagi islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida.....457

Турақулов А.А. Замонавий футболда миллий қадриятлар таълим тизимида.....458

Тўраханова М.А. Мактабгача ёшдаги болаларни мустақил фикрлашга йўналтиришнинг психологик ва педагогик хусусиятлари.....463

Турғунов Ш. Ўланларда тарихий воқелик ифодаси.....465

Tursunova N.A. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda o’qituvchining roli.....468

Ubaydullaeva V.P., Mavlyanov A. Kompetentli kadr – kelajak poydevori..471

Ulkanboyeva M. Ziddiyat va uyg’unlik (Guli Murod hikoyalari asosida).....474

Умарова К.А. Методологические подходы к исследованию развития управления.....477